INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

GADOIYNING NA'T G'AZALLARI

Madaliyev Yarmuhammat Xudaybergenovich,
Muxtor Avezov nomidagi Janubiy
Qozog'iston tadqiqot universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.,

Aslanova Hafiza Abduraximovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.15679885

Annotatsiya. XV asrda shoirlar ijodiy merosi majmui shakllana boshlandi. Unga ko'ra, devon tartib berishlik an'anasi yuzaga keldi. Mavlono Gadoiy ham ilk sohibdevon ijodkorlardan biridir. Maqolada Gadoiyning devoni va undagi na't g'azallarning mazmuniy tahlili yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: devon, g'azal, hamd, na't, ishq, qasida, bayt.

Аннотация. В XV веке начал формироваться комплекс творческого наследия поэтов. По его словам, была создана традиция деванского ордена. Маулона Гадой также является одним из первых творцов-сахибдеванов. В статье освещен диван Гадоя и содержательный анализ нат-газелей в нем.

Ключевые слова: деван, газель, хвала, нат, любовь, поэма, стих.

Annotation. In the 15th century, a complex of poets' creative heritage began to take shape. According to him, the tradition of the Devan Order was created. Maulona Gadoi is also one of the first creator sahibdevans. The article highlights Gadoy's divan and a meaningful analysis of the nat-ghazals in it.

Key words: dewan, ghazal, praise, nat, love, poem, verse.

Gadoiyning jami 237 ta she'rni o'z ichiga oladigan adabiy merosi orasida 230 ta g'azal, 1 ta mustazod, 1 ta qasida va 5 ta tuyuq mavjud. Shoir devonidagi g'azallar devonchilik an'analari tartibida joylashtirilgan. Tabiiyki, ularning yozilgan davri ma'lum emas. Devondan o'rin olgan go'zal va sermazmun lirik asarlar, shubhasiz, salkam bir asrlik Gadoiy umrining turli davrlarida yaratilgan. Ustoz adabiyotshunos Hamid Sulaymon qayd etganlaridek: "Sharq xalqlari adabiyotida lirik asarlarning yozilish tarixini she'r ostida ko'rsatish, ayniqsa o'rta asr davrlarida odat bo'lgan emas... Turkiy va forsiy tilda she'r yozgan shoirlarimiz... g'azal oxirida shoir taxallusini ko'rsatish bilan kifoyalanganlar, xolos" [Аҳмадхўжаев Э, 1978: 22]. Devonda "Gadoiy" taxallusi 9 ta g'azalda qo'llangan bo'lsa, 197 ta g'azal, 1 qasida, 1 ta mustazod va 1 ta tuyuqda shoir taxallusi "Gado" tarzda yozilgan, 28 ta g'azal da esa taxallus qo'llanmagan. Shoir taxallusi 205 ta g'azalning maqta' - oxirgi baytida, 4 ta g'azalning esa maqta'dan oldingi baytida qo'llangan.

Gadoiy devoni an'anaviy tarzda tartib berilgan: hamd, na't, munojot. Uning na't mazmunidagi g'azallarida insonning umr kechirishdan maqsadi aks ettirishini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, muqaddas dinimiz, tasavvuf ta'limotining g'oya kulminatsiyasi inson hayotining mazmuni va bajarishi lozim bo'lgan amallariga ega. Mumtoz adabiyotimizda Hazrati payg'ambar siymosi tasvirini keng monografik o'rinda ilmiy tadqiq etgan olim M.Q.Muhiddinov hamd-na'tlar xususida quyidagi fikrlarni o'rtaga tashlaydi: "Bizning

fikrimizcha, hamd va na’tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega… “hamd” va “na’t”da qasida xususiyati bor, ya’ni ta’rif-tavsifi, til uslubi ko‘tarinki ruh bilan yozilgan. Lekin, qasidaning shakli, qofiyalanish tartibi boshqa (aa, ba, va…) bundan tashqari, qasida janrining ob’ekti “na’t-hamd”lardan farq qiladi. Na’t-hamdlarda muallifning falsafiy mushohadalari ham ifodalangan”. [Муҳиддинов М.Қ, 2005: 208].

Husn ichinda qudrati yazdoniy sensen, yo habib,
Bu qamar davrinda xublar xoni sensen, yo habib.
Ul labi jonbaxshni ko‘rgach ravone angladim,
Kim, jarohatliq ko‘ngul darmoni sensen, yo habib.
Sen eypariyvash hurni el odam o‘g‘li sog‘inur,
Bilmayinkim, odamiylar joni sensen, yo habib.
Alloh, Alloh, bu malohatkim, zilol irningdadur,
Xizrning sarchashmayi hayvoni sensen, yo habib.
Kufri zulfungg‘a gar iqror ayladi miskin, Gado,
Bok emas, chun ravnaqi iymon sensen, yo habib [Девони Гадо, 2020: 30-31].

G‘azal radifidan ikki olam sarvari Muhammad s.a.v.ga mansub sifat – habib orqali Gadoiy o‘z chaqirig‘ini ifodalaydi.

Birinchi baytga e’tibor qarataylik: *Bu go‘zallikni faqat Olloh yarata oladigan qudratdan hosil bo‘lgan zotsan. Shu davrning necha bilimdon kishilari bo‘lsa, ularga xon o‘zingsan yo Ollohning habibi*. Birinchi misrani o‘zidayoq, Ollohning nuri Muhammadiyning yaratganligiga ishorani anglaymiz. Adabiyotshunos olim M.Q.Muhiddinov “Nuri Muhammadiya” xususida shunday deydi: “Nuri Muhammadiya” tushunchasi islom ulamolari ishlarida tez-tez tilga olinadi, ayniqsa, tasavvuf ta’limotida bu tushuncha yaxshi ishlangan. Tasavvuf ahli fikriga ko‘ra, Tangri ta’olo olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo‘lib, shu nur tufayli olamlarni va odamlarni xalq etdi. Bu nurni “Haqiqati Muhammadiya” deb ham yuritadilar” [Муҳиддинов М.Қ, 2005: 37]. Gadoiy g‘azallarining birida shu nurga ishora qilib, quyidagi tasvirni ifodalagan:

Yuzungda qilsa bo‘lur sun’i Haq mushohadasin,
Bu ne safo, ne tarovat dag‘i ne nur bo‘lur! [Девони Гадо, 2020: 67].

Ikkinchi baytning sharhida esa, shunday fikrni ko‘ramiz: *Har bir so‘zi ila imonga chorlovchi zot ekanligingni angladim. Har qanday qalb qusurlarini yaxshilik bilan davolovchi Ollohimning mahbubi – o‘zingsan.*

Muhammad s.a.v.ning noyob insoniy xususiyatlaridan biri – nihoyatda chiroyli so‘zlashi bilan boshqalardan ajralib turadigan fazilatiga urg‘u berilgan. Payg‘ambarimiz botinu zohirlarida o‘zlarining Ollohga bo‘lgan muhabbatini Olloh ilmi bilan tashviqot olib borganlar. U zot diniy ma’rifat sohibi bo‘lib, so‘z vositasida bashariyatni imon keltirishligida, Haqni tanitishlikda ko‘p mashaqqat chekkanlar. Keyingi baytda ana shu zotning sa’y-harakatlari necha asrlar osha dasturulamal ekanligini tasvirlaydi: *Butun musulmon ahliga Inson qanday yashash kerakligini dinimiz qoidalari asosida o‘rgatding, sen tufayli ongimiz ma’rifat topdiki – sen odamiylik jonini baxsh etuvchi Oliy zotsan. Seni shu bois ham har inson sog‘inadi.*

“Ma’rifat – dildagi ilm, mushohada va maqsad yo‘lidagi kuchli iroda majmuidir. Bu Haqni tanish yo‘lidagi eng yuksak daraja va eng yaqin yo‘l. Ammo bu maqom Haqni tanishdagi quyi darajalar – ibodat (shariat ilmi), aql-idrok (zohiriy, naqliy ilm) tufayli hosil bo‘ladi. Boshqacha aytganda, dildagi – ichkaridagi ma’rifatning tashqaridagi qo‘riqchilari ibodat va

zohiriy ilm qudratidir. Ammo, so‘fiylar Yaratguchining ularga marhamati bo‘lmish ma’rifatni qanchalik pinhon saqlamasinlar, uning nuri ularning yuzlarida, ko‘zlarida, so‘zlarida aks etib turadi. Dildan tashqaridagi bu in’ikosni (oshkoralikni) yana aql nurlari ihota etadi va muhofaza qiladi. Shuning uchun ma’rifatli inson yuzidagi nurni hamma ko‘ra olmaydi [Дилором Салоҳий, 2018: 77].

Keyingi baytda Gadoiy Muhammad s.a.v.ning hamisha barhaqligiga, so‘zlarida yashayotganligiga ishora qiladi: *Ey Ollohim, habibingni sening ilming sohibi va targ‘ibotchisi qilib qo‘yding. Shu bois ham ahli bashar orasida jisman yo‘g‘u, ammo fikratlarda xuddi Xizr singari barhayot!*

G‘azal mohiyatan tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy hayotdagi muhim o‘rni xususida fikr yuritishga da’vat etadi. Tasavvuf targ‘ibotchisi – mutasavvuf va so‘fiylar deb yuritiladi. “Agar keng va chuqur ma’noda tasavvufga yondashadigan bo‘lsak, eng birinchi mutasavvuf Odam alayhissalom bo‘ladilar. Zero, tasavvufning asli bandalikni tan olmoq va Robbni tanimoqdir” [Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, 2011, 50]. Pandu nasihat bilan yaxshilik, to‘g‘rilik, pokizalik, halolikka da’vat etishlik muqaddas dinimizning maqsudidir. Dunyodagi barcha dinlarning asosi – Ollohga imon keltirish sanaladi. Turli davrlar, davr qahramonlari o‘zgaradi, ammo, yakka g‘oya – Haq o‘zgarmas. “Haqshunoslik ilmi axloq ilmi bilan baqamti va birgalikda jarayon topib, umuminsoniy fazilatlarga boy va olamu odam taqdiri bilan bog‘liq muammolarni targ‘ib-tashviq etadi va doimo shularga tayanadi. Tasavvufning bosh yo‘nalishi bo‘lgan g‘oya Alloh bilan bog‘langan ruhiyatdir... XI asrda tasavvuf borasida fors tilida yozilgan eng qadimiy tazkira “Kashf ul-mahjb”da ushbu ta’limotning “binosi”, ya’ni tuzilishi “sakkiz xislat”dan iborat deb ta’kidlanadi. Keyin bu xislatlarning har biri o‘z navbatida payg‘ambarlarning shu xislatlarga doir xususiyatlari bilan qiyoslanib, mazkur xislatlarning payg‘ambarlar xislatidan sarchashma olganiga ishora etiladi. Shu tartibda mazkur tazkira muallifi Ali bin Usmon tomonidan tasavvuf “binosi”ga tom ma’noda diniy-irfoniy ohang beriladi. Chunonchi, tasavvuf tuzilishining sakkiz xislatidagi sakkiz binosi (imorati) bunday ta’riflanadi:

Birinchisi, “saxovat va u Ibrohim payg‘ambarlardan nisbat oladiki, saxovatda tengi yo‘q kishi edi. Chunonchi, farzandini xudo yo‘lida qurbon qildi” va bu saxiylikni hech kim qilmagan edi. Ikkinchisi, “rizolikkim, Ishoq payg‘ambarlarga taalluqlidir. U Alloh farmoniga rozilik berib aziz jonini tark etishga rozi bo‘ldi”. Uchinchisi, “sabrkim, Ayyub payg‘ambarlardan ildiz oladi. Bu payg‘ambar tanasini etmish yil qurtlar edi va u esa, bu baloyi azimga sabr-bardosh qildi”. To‘rtinchisi, “ishoratkim, Zikriyo payg‘ambarlarga mansubdir” va beshinchisi, “g‘ariblikkim, Yahyo payg‘ambar qismati bilan bog‘liqdir. U o‘z vatanida g‘arib va qarindoshlar orasida begona edi”. Oltinchisi, “sayohatdakim, Iso payg‘ambarning odatiga tutashadi. Iso sayru sayohatda mujarrad, ya’ni tanho (yakka) yurardi va bir kosa va bir taroqdan boshqa narsa olib yurmasdi”. Yettinchisi, “suf libosidakim, Muso payg‘ambarning libosiga nisbat beriladi. Musoning jamiki kiyadigan kiyimi (to‘ni) suf (jun mato)dan iborat edi”. Sakkizinchisi, “faqirlikdakim, Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning asl odatlaridan edi [Абдуллаев Аҳмад, 2009: 10-11].

Gadoiy g‘azal maqtasida o‘zining imonga munosabatini nihoyatda go‘zal tashbih bilan ifodalagan: *Gadoiy qo‘rquvsiz bitta qaror qilgan: iymonimning o‘zi sensan yo Ollohning rasuli – yo Ollohning suyuklisi!* “Tasavvufdagi birinchi maqom – iymondir” [Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, 2011: 50]. Gadoiy ayni o‘rinda payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ga bo‘lgan hurmat va imonga iqrorlikni yana bir g‘azalida shunday deb keltiradi:

Bu Gado sori ne bo‘lg‘ay “hosa indalloh” uchun,
Gar inoyat ko‘zi birla qilsangiz bir iltifot [Девони Гадо, 2020: 35].

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

Mazmuni: *Ey Ollohning payg‘ambari, g‘arib Gadoga birgina nazar soling, shunng o‘zi unga (o‘ziga) tarbiya topishligiga (diniy ilmga ega bo‘lishligiga) kifoya qiladi.*

Insonlarning chin musulmonlik maqomini olib, imon-e’tiqodiga sodiq qolishlik holati yuksak badiiy did bilan yoritilgan. Gadoiy ijodida er go‘zaliga bo‘lgan muhabbatning rivoj topib, Ollohga bo‘lgan Ishqqa aylanishlik holati, tasavvufning «majoziy ishq – ilohiy ishqqa o‘tkazuvchi ko‘prik» ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ishqiy mavzudagi g‘azallardan ikki xil muhabbatning yakdil g‘oya kasb etishini va yuqoridagi fikr isbotini quyidagi g‘azalda ko‘ramiz:

Yanoqing ravzayi rizvondin ortuq,
Dudoqung chashmayi hayvondin ortuq.
Qamar davrinda Misri husn ichinda,
Azizim Yusufi Kan’ondin ortuq.
Firoq o‘tina xud jon o‘rtanibtur,
Nedur deb kuydururs an din ortuq.
Kerakliktur sanga jon deb so‘rarsen,
Keraktur jon, vale sen andin ortuq.
Gadoiy bish emastur der raqibing,
Gadodurmen, vale sultondin ortuq [Девони Гадо, 2020: 81].

Mazmuni: *Yuzlaringni jilosi jannat bog‘laridan ortiq, jonbaxsh etuvchi dudog‘ing boqiylik suvi bilan sug‘orilgan. Bemisil go‘zallar ichida, Yusuf husnidanda latofating ortiqdir. Hijron olovi bilan jonimni qiynaysan, yana “holing qanday?” deb so‘rab, qalbimni yanada ortiq azobga qo‘yasan. Agar, ozorlangan jismimni so‘rasang ham shaksiz, senga tortiq qilaman. To‘g‘ri, men bir Gadoman, hech chaqam yo‘qdir, ammo mening ishqim sultonlar boyligining qiymatidan ham qimmatlidir.*

G‘azal g‘oyasida ishqqa boy shoir qalbini faxriya san’atining nozik ifodasida ko‘ramiz. Xuddi shu kabi holatni yana bir baytda uchratamiz:

Har kimki bu eshikta maningtek Gado bo‘lur,
Taxti Qubodu mulki Sikandar havas qilur [Девони Гадо, 2020: 64].

Mazmuni: *Men bir gado holidagi insonman, lekin ishqim boyligimdir. Bu boylikka katta mulk egalari Qubon va Iskandarning havasi keladi.*

Mavlono Gadoiy tasavvufiy qarashlarning aks etishini, tavhidga erishishlikni sabrsizlik bilan kutuvchi insonni tasviriga e’tibor qaratsak:

Ey xayoling g‘am kuninda ko‘ngluma faryodras,
Bordingu jon ichra qoldi yodgoring ohu bas.
Baytul ahzoni firoqingda topilmaydur manga,
Nolavu afg‘ondin o‘zga hamnishinu hamnafas.
Sunbulung yaldosida har nechakim, kirdi ko‘ngul,
Ko‘rmadi jodu qaroqingdek ham o‘g‘ri ham abas.
Ka’bayi maqsad jamolingdur, qoshing jon qiblasi,
Englaring xoni Xalilulloh dag‘i holing adas.
Barqi g‘ayrattin kuyar jonim, Xudoy ogoh erur,
Gar shakar irning sari parvoz etar bo‘lsa magas.

O‘lganimdin so‘ng mazorimdin guzore qilg‘asen-
Kim, hamin o‘qtur manga dunyoda sendin multamas.
Tarki lazzoti jahon qilg‘in, Gadokim, orifa,
Behrak erur yuz tuman toji murassa’din maras [Девони Гадо, 2020: 72].

Mazmuni: Ko‘nglim qayg‘uga botib turgan har kunimda o‘zing g‘amxo‘rimsan. Yaratiqing (men) qalbida juda oh tortib, joni azoblanmoqda. Men firoqing tufayli g‘amxonada qolib ketdim, menga nolayu qayg‘ular suhbatdosh bo‘lib qoldi. Ishq yo‘lida uzun qora kunlarga mubtalo bo‘ldim, ishqimni so‘ndirishga harakat qiluvchi fitnagarlar urinishlari befoydadir. Ahli musulmonni chorlovchi – Olloh uyi mening maqsadim. Ibrohim alayhissalom Ka’basini tavof etishim ko‘nglim maylidir. Chin ishq borligini hayotim davomida chaqin chaqqandek angladim va una xuddi asalga pashshayu chivinlar uchib borib qo‘ngani singari men ham shu Husni Mutlaqqa intilish hssini tuydim. Bu dunyoda eng yaqinim sensan va sendan yagona iltimosim: Vafotimdan so‘ng, qabrimni ziyorat etgin va ommaga shuni uqtir – Gado ishqqa giriftor bo‘ldi. Foniy ishq lazzatidan kechib, xuddi zebu ziynat bilan bezatilgan ilohiy ishq tojini boshiga kiyib, orif – Olloh irfoni sohibiga aylandi.

Lirik qahramon Ollohga intilishi va unga tezroq erishishlikni maqsad qilgani Gadoiy badiiyatida tasavvufiy tavhidni ko‘rsatib beradi. Tavhid – tasavvufda Ollohni bitta deb anglash, uning zotini aqliy tasavvurlar va zehniy xayollardan holi qilishdir. Tavhid uch xil:

1. Haqning yagona va tengsiz ekanini bilish;
2. Haqning yagona va tengsiz ekanini xalqqa bildirish;
3. Haqning yagona va tengsiz ekanini xalqning til bilan iqror aylashi.

G‘azalda tavhidning har uchala turi bosqichma-bosqich ko‘rsatilgan: Ollohning yagonaligini angladi, uni xalq bilishligini istadi va insoniyat uning shu oliy g‘oyaga ergashishini meros qoldirdi. Shu jihatdan nafsidan foniy va Haq bilan boqiylik holiga erishgan muvahhiddir. Ishq – Ollohning jamoliga sabab bo‘ladigan dastlabki sifat. Tasavvufda Husni Mutlaqqa bo‘lgan shiddatli sevgidir. Oshiqning holati baytlar dinamikasida ochib boriladi va yakunda nafsni engib, Oliy ishqqa erishgan mutasavvuf namoyon bo‘ladi. Zero, “tasavvufiy talqin ikki asosdan kelib chiqadi:

1. Tasavvufiy ma’noni nazarda tutib asar bitish.
2. Asar talqini jarayonida obrazga tasavvufiy ma’no yuklash.

Unda har ikki holatda ham mustaqil ma’no zohir bo‘ladi [Эркинов А, 2018: 46].

Gadoiy ijodida orifona mavzuning aks etishligi islom dini va uning tariqatlarini xususan, tasavvufiy qarashlarning badiiy ijodga singish holatini belgilaydi. Shoir o‘z zamonasi ijodkorlari orasida ilmu irfon sohibi ekanligidan dalolat. Bu esa, o‘z navbatida ma’rifiy-tasavvufiy g‘oyalarni badiiy chaqiriq orqali targ‘ibotchi sifatida ham kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon eta oladigan shoirlardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Аҳмад. Тасаввуф ва унинг намояндалари. - Т: «Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти», 2009.
2. Аҳмадхўжаев Э. Гадоий (Ҳаёти ва ижодий мероси). - Т.: Фан, 1978.
3. Девони Гадо. - Тошкент: “Vneshinvestprom”, 2020.
4. Дилором Салоҳий. Тасаввуф ва бадиий ижод. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Наврўз» нашриёти, 2018.
5. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: «Шарқ», 2011.
7. Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Тошкент: Тамаддун, 2018.
8. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
9. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
10. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
11. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
12. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.
13. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.